

**INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-
NAZARIY YONDASHUVLARI**

Valikulov Sherzod Zaynitdinovich

Toshkent davlat texnika universiteti

Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: valikulovs84@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi investitsiya va investitsion faoliyatning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan. Investitsiya va investitsion faoliyat bo'yicha mahaliya va horijiy olimlarni ilmiy yondoshuvlari o'rganilib kerakli hulosalar shakllantrilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion faoliyat, investorlar.

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE
FORMATION OF THE INVESTMENT CLIMATE**

Abstract. This thesis examines the scientific and theoretical foundations of investment and investment activity. The scientific approaches of both domestic and foreign scholars on investment and investment activity are analyzed, and the necessary conclusions are formulated.

Keywords: investment, investment activity, investor.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ
ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ**

Аннотация: В данном тезисе изучены научно-теоретические основы инвестиций и инвестиционной деятельности. Рассмотрены научные подходы отечественных и зарубежных ученых в области инвестиций и

инвестиционной деятельности, на основе чего сформулированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: инвестиция, инвестиционная деятельность, инвесторы

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtiruvchi eng asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, balki ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois investitsion faoliyatning ilmiy va nazariy jihatlarini chuqur o‘rganish har qanday iqtisodiyot uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotni obyektini – iqtisodiyotda investitsion faoliyat jarayoni hamda investitsiyalarning shakllanishi, taqsimlanishi va amalga oshirilishi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti – investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, ularning turlari (real va moliyaviy investitsiyalar), investitsiya jarayonining nazariy asoslari hamda investitsiyalarni samarali boshqarish, moliyalashtirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini asoslab berish hamda investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini yoritishda kompleks ilmiy yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, investitsiya tushunchasiga oid nazariy qarashlar tahlil qilinib, ularning evolyutsiyasi o'rganildi. Ilmiy ishda qiyosiy tahlil usuli yordamida turli iqtisodchi olimlar qarashlari o'zaro solishtirildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida investitsiyalarning iqtisodiy jarayondagi o'rni va funksiyalari kompleks tarzda ko'rib chiqildi. Tadqiqotda mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanilib, investitsiya tushunchasining umumiy mohiyati shakllantirildi. Analitik tahlil orqali investitsiyalarning real va moliyaviy shakllari ajratib ko'rsatildi hamda ularning o'ziga xos jihatlari ochib berildi. Shu bilan birga, induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiy nazariy xulosalardan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga kelindi. Tadqiqot davomida iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va dinamikasi ham hisobga olindi. Metodologik jihatdan ushbu ish ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillariga amal qilgan holda olib borildi. Natijada investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ularni samarali boshqarish zarurati ilmiy asosda yoritib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati: "Atama sifatida 'investitsiya' lotincha *investire* – kiyintirmoq, kapital qo'ymoq degan so'zdan olingan bo'lib, iqtisodiy mazmunda kapitalni foyda olish maqsadida uzoq muddatli aktivlarga yo'naltirishni anglatadi." Investitsiyalar ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

1. *Real investitsiyalar* – ishlab chiqarish vositalariga, ya'ni mashina, uskunalar, binolar, yer va boshqa moddiy aktivlarga sarflanadigan mablag'lar;

2. *Moliyaviy investitsiyalar* – qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, aksiyalar yoki boshqa moliyaviy vositalarga kiritiladigan mablag'lar.

“E.D. Dolan va D.S. Lindseylar investitsiya mohiyatini mikroiqtisodiy nuqtai nazardan talqin qilib, ular investitsiyaning mazmunini – “shakllanayotgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining o'sishi, odamlar amal qiladigan ishlab chiqarish resurslari taklifining yuksalishida” deb biladilar” [1] E.D. Dolan va D.S. Lindseylarning mikroiqtisodiy nuqtai nazardan investitsiya mohiyati haqidagi ta'rifiga ko'ra, investitsiya – bu shakllanayotgan iqtisodiy tizim doirasida kapital hajmining o'sishini ifodalaydi. Ular investitsiyani ishlab chiqarish resurslari taklifining ortishi bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rishadi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar iqtisodiyotga yangi mablag'lar, jihozlar, texnologiyalar va infratuzilmani kiritish orqali ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Iqtisodchi-olimlardan Kempbell R.Makkonell, Stanli L.Bryu investitsiya tushunchasini quyidagicha sharhlaydilar, ya'ni “Investitsiya (investment) – bu moddiy zaxiralarni ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga xarajatlar.”[2] Ushbu ta'rif o'z mazmuniga ko'ra, ko'proq “kapital qo'yilmalar” tushunchasiga mos kelishini ta'kidlab o'tish joiz. Kempbell R. Makkonell va Stanli L. Bryu tomonidan berilgan investitsiya ta'rifiga ko'ra, investitsiya – bu moddiy zaxiralarning o'sishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi hamda ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlardir. Ushbu ta'rifda investitsiya nafaqat moliyaviy sarmoya, balki iqtisodiyotning real sektorida amalga oshiriladigan moddiy va texnik resurslarning ortishi sifatida tushuniladi.



Ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, investitsiya juda keng ma'noga ega tushuncha bo'lib, u iqtisodiyotda moddiy qiymatlarni ko'paytirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish uchun qilinadigan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham, samarali investitsiya siyosati va boshqaruvi iqtisodiy barqarorlik hamda uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Investitsiyalar – qo'yilmaning kelgusida o'sish maqsadida bugungi iste'moldan voz kechish”. [3] Bu tushuncha iqtisodiyotning vaqt omilini hisobga olgan holda, resurslarni vaqtinchalik to'planishi yoki tejash jarayonini anglatadi. Hozirgi daromad yoki iste'moldan chetlanib, bu mablag'lar keyinchalik ko'proq va samaraliroq natija olish uchun yo'naltiriladi. Natijada, investitsiya – bu nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki vaqt bilan bog'liq qaror hamdir, u orqali hozirgi resurslar kelajakda boylik va farovonlikni oshirish uchun sarflanadi. Ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun investitsiyalar zarur.

“Investitsiyalar atamasini kapitalning kelgusida ko'payishi maqsadida uning turli xil shaklda joylashtirilishi sifatida belgilash mumkin.” [4] I.Yu. Tkachenko ta'rifiga ko'ra, investitsiyalar – bu kapitalning kelajakda ko'payishi maqsadida turli shakllarda joylashtirilishi jarayonidir. Bu tushuncha investitsiyalarni iqtisodiy resurslarning faollashuvi va samarali taqsimlanishi sifatida ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar amalda mablag'larni yoki boshqa qiymatlarni biror maqsad yoki loyiha doirasida sarflash, ya'ni investitsiya qilingan kapitalni vaqt davomida oshirishga qaratilgan harakatlarning majmuasidir. Shunday qilib, investitsiyalarning mazmuni va mohiyati – bu nafaqat kapitalni vaqtinchalik joylashtirish, balki uning kelajakda o'sishi uchun puxta reja va boshqaruvni talab

qiladigan dinamik jarayon deb hisoblash mumkin. Shuning uchun ham investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Professor D. G'ozibekov tomonidan investitsiyalarning mazmuniga quyidagicha ta'rif berilgan: "Aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilariga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yimalardan mazmunan farq qiladi. Bular barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalarning mohiyatini aks ettiradi." [5] G'ozibekov D. G'ning "Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari" asarida keltirilgan fikrlar asosida investitsiyalar mohiyatini tahlil qilish mumkin. Investitsiyalar aniq va ishonchli manbalardan olishni, ularni asosli va samarali tarzda safarbar etishni, risk darajasini hisobga olishni va kapital qiymatini saqlab qolish hamda ko'zlangan natijaga erishishni o'z ichiga oladi. Bu investitsiyalarni boshqa moliyaviy qo'yimalardan farqlovchi asosiy xususiyatlardandir. Xulosa sifatida, investitsiyalarni moliyalashtirish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan kompleks bosqichlar majmuasidir. Bu bosqichlar orasida mablag'larni jalb qilish, ularni asosli safarbar etish, risklarni boshqarish, kapitalni saqlash va intellektual resurslardan foydalanish kabi elementlar mavjud. Ushbu tushunchalar investitsiyalarning iqtisodiy jarayondagi o'rnini va ularni samarali boshqarish zaruratini yoritadi

XULOSA VA TAKLIFLAR



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya tushunchasi iqtisodiyotda keng va ko'p qirrali ma'noga ega bo'lib, u nafaqat kapitalni vaqtincha joylashtirish, balki ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Turli iqtisodchilar ta'riflari shuni ko'rsatadiki, investitsiya – bu iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish, kapitalni kelajakda ko'paytirish va ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish jarayoni. Shu bois, investitsiya faqat moliyaviy sarmoya emas, balki iqtisodiyotning real sektoridagi moddiy va texnik resurslarni rivojlantirish vositasi sifatida ham tushunilishi lozim.

Investitsiyalar vaqt omilini hisobga olgan holda amalga oshiriladi: bugungi resurslardan voz kechish orqali kelajakda yanada katta iqtisodiy natijaga erishish imkonini beradi. Shuning uchun samarali investitsiya siyosati va boshqaruvi iqtisodiy barqarorlik hamda uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Investitsiyalarni samarali jalb etish va ularning iqtisodiyotga ta'sirini oshirish maqsadida bir nechta chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Birinchidan, mamlakatda investitsiya siyosatini rivojlantirish va uning strategik yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, investitsion loyihalarning samaradorligini muntazam baholash zarur. Ikkinchidan, investitsiyalarni moliyaviy vositalardan tashqari ishlab chiqarish vositalari, texnologiyalar va infratuzilma loyihalariga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun risklarni baholash va ularni boshqarish mexanizmlari takomillashtirilishi lozim. To'rtinchidan, investitsion faoliyatning ilmiy-nazariy



asoslarini rivojlantirish orqali real sektor resurslarini yanada samarali jalb qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, investitsiyalar orqali yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash va barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Долан Э. Дж., Линдсей Д. Е. Микроэкономика. – Спб., 1994-448с
2. Кэмпбелл Р. Макконелл, Станли Л. Брю. Экономика, принципы, проблемы и политика. 2-том. – М.: «Республика», 1992. – С. 388
3. Самуэльсон П. А. Экономика: пер. с англ. – М.: «БИНОМ», 1997. – С. 783.
4. Ткаченко И. Ю. Инвестиции: учеб. пособие. – М.: «Академия», 2009. – С. 6
5. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Moliya, 2003. – 26-b.